O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI NURAFSHON SHAHAR HOKIMINING

QARORI

Nurafshon sh., Toshkent yo’li ko’chasi, 55a uy

2024 - yil 9 - yanvar 10-10-213-Q/24 Nurafshon shahar hokimligi

Shahar hududidagi avtomototransport vositalarini 2024-yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish va uni o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil 9-son, 215-son), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 125-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-martdagi “Transport vositalarini majburiy tarzda texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 272-sonli qaroriga muvofiq, shahar hududidagi avtomototransport vositalarining majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish va uni o‘tkazishni ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-moddasiga asosan,

QAROR QILINDI:

1. Nurafshon shahar Ichki ishlar bo‘limining yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi, shahar hududidagi transport vositalarini majburiy yillik texnik ko‘rikdan o‘tkazish ishlarini tashkillashtirsin.

2. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi belgilansin:

a) tijorat asosida yo‘lovchilar tashish uchun foydalaniladigan yengil avtomobillar, avtobuslar va o‘tiriladigan joylar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularga tirkamalar - bir yilda ikki marta;

b) ishlab chiqarilganiga o‘n besh yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) - ikki yilda bir marta;

v) ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti

aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — bir yilda bir marta;

g) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-iyundagi PQ-298-sonli qarori bilan jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarilgan yili 10 (o‘n) yildan oshmagan M-1 (YENGIL) turdagi avtotransport vositalari ixtiyoriy ravishda texnik ko‘rikka taqdim etilsin, mazkur qarorning 2-bandi “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalari bundan mustasno.

d) tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi-shatakchi uchun belgilangan muddatlarda taqdim etiladi;

e) navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat’i nazar, ularni DYHXX organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

3. Mazkur qarorning 2-bandi “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta – 1-mart – 30-iyunda;

ikkinchi marta – 1-sentabr – 31-oktabrda o‘tkaziladi.

Yuridik shaxslarga qarashli bo‘lgan transport vositalarining texnik ko‘rigi 2024-yil 1-mart – 31-dekabrda o‘tkaziladi.

Jismoniy shaxslarga qarashli bo‘lgan transport vositalarining texnik ko‘rigi 2024-yil 1-yanvar – 31-avgustda o‘tkaziladi.

4. Korxona, tashkilot va muassasalardagi avtotransport vositalarini 2024-yilgi texnik ko‘rigidan o‘tkazish bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Korxona, tashkilot va muassasalarda davlat avtotransport vositalarini 2024-yilgi texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Shahar hokimi o‘rinbosari F.Shomurodov va Toshkent viloyati hokimligining Yo‘lovchi transportining barcha turlari harakatini litsenziyalash va muvofiqlashtirish departamenti Nurafshon shahar vakili:

a) zudlik bilan yo‘llarda harakat xavfsizligini ta’minlash komissiyalari bilan hamkorlikda, yuridik shaxslar rahbarlarini jalb etgan holda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikka tayyorlash hamda uni o‘tkazish chora-tadbirlarini ishlab chiqsin va amalga oshirilishi ustidan nazorat o‘rnatsinlar;

b) transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish ishlarining samaradorligini oshirish maqsadida shahar ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi, mudofaa ishlar bo‘yicha shahar bo‘limi vakillari va yuridik shaxslarning muhandis-texnik xodimlaridan iborat ishchi guruhlar tuzsinlar;

v) shahar ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi bilan birgalikda faoliyati tugatilgan, mulkchilik shaklidan qat’i nazar korxona, tashkilot va muassasalar

tasarrufida bo‘lgan transport vositalarini, tirkamalarni, yarim tirkamalarni aniqlash hamda ularni belgilangan tartibda hisobdan chiqarish choralarini ko‘rsinlar.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yo‘lovchilar va bagaj tashish qoidalarini hamda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish xavfsizligini ta’minlashga doir talablarini tasdiqlash haqida”gi 482-sonli qarori (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plamlari, 2003-yil 21-son, 204-modda) talablarini ijrosini ta’minlash, yo‘lovchilarga samarali transport xizmati hamda ularning xavfsizligini ta’minlash maqsadida, shahardagi barcha tijorat asosida yo‘lovchi tashish bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar tasarrufidagi ishlab chiqarilgan yili 10 yildan oshgan barcha turdagi avtobus va kichik avtobuslarning majburiy texnik ko‘rigi Olmaliq shahridagi 1-sonli diagnostika tarmog‘ida o‘tkazilishi tashkillashtirilsin.

8. Shahar ichki ishlar bo‘limining tegishli xizmatlari xodimlari, jamoatchilik vakillari bilan hamkorlikda jismoniy va yuridik shaxslarga qarashli bo‘lgan avtomototransport vositalarini to‘liq majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishini ta’minlasin.

9. Transport vositalarining majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvaliga asosan avtobus va kichik avtobuslarni majburiy texnik ko‘rikka tayyorlash va taqdim etish bo‘yicha yuridik shaxslar rahbarlari va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilsin.

10. O‘rnatilgan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tmagan (ishlab chiqarilgan yiliga 15 yildan oshgan) avtobus va kichik avtobuslardan foydalanish ta’qiqlansin.

11. Mulkchilik shaklidan qat’i nazar korxona, muassasa va tashkilot rahbarlari majburiy texnik ko‘rik boshlanishidan kamida 10 kun oldin viloyat ichki ishlar boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi xizmati boshqarmasining shaharlararo ro‘yxatlash va imtihon olish bo‘linmasiga (TRIB) mavjud transport vositalari haqidagi ma’lumotlarni taqqoslash uchun taqdim etilsin.

12. Yil yakuni bo‘yicha texnik ko‘rikka taqdim etilmagan avtomototransport vositalari ro‘yxati yilning 1-noyabrigacha elektron va bosma shakllarda shakllantirilib, Boshqarma texnika nazorat bo‘limiga taqdim etilsin.

13. Oxirgi uch yil davomida majburiy texnik ko‘rikka taqdim etilmagan avtomototransport vositalarining tasdiqlangan ro‘yxatiga asosan avtomototransport vositalari egalarining turarjoy manzili bo‘yicha, fuqarolarning turarjoy daxlsizligini buzmagan holda, ularning roziligi bilan inventarizatsiyadan o‘tkazilishini ta’minlansin va yaroqsiz deb hisoblangan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-martdagi “Transport vositalarini majburiy tarzda texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 272-sonli qaroriga asosan ro‘yxatdan chiqarish ishlari amalga oshirilsin.

14. Sug‘urta faoliyati bilan shug‘ullanuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlar, shahar ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi bilan hamkorlikda majburiy transport vositasining sug‘urtasi to‘lovlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda undirish choralarini ko‘rsin.

15. “Mash’al” ijtimoiy-siyosiy gazetasi (T.Xakimov)ga:

transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning asosiy garovi ekanligini targ‘ib qilib borish tavsiya etilsin.

16. Nurafshon shahar hokimining 2023-yil 29-dekabrdagi “Shahar hududidagi transport vositalarini 2023-yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi 468-10-213-Q/22-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

17. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

18. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimi o‘rinbosari F.Shomurodov zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi v.v.b. **Q. Alkarov**

Nurafshon shahar hokimining
2024-yil 9-yanvardagi
10-10-213-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Nurafshon shahar xo‘jalik, korxona va tashkilotlardagi avtotransport vositalarini 2024-yilgi texnik ko‘rigidan o‘tkazish bo‘yicha komissiya

TARKIBI

I.Umarov	Komissiya raisi, SHIIB YHXB boshlig‘i

A’ZOLARI:

1. J.Po‘latov	Shahar “Vatanparvar” MKT rahbari
2. A.Mukimov	Shahar Mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i
3. R.Tuxtasinov	Shahar YXPTFK boshlig‘i
4. N.Uzakbayev	Nurafshon shahar FVB

Nurafshon shahar hokimining
2024-yil 9-yanvardagi
10-10-213-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Nurafshon shahar xo‘jalik, korxona va tashkilotlarda davlat avtotransport vositalarini 2024-yilgi texnik ko‘rikdan o‘tkazish

JADVALI

T/r	Tashkilotlar nomi	T/r- soni	Texnik ko‘rik kuni	O‘tkazila-digan vaqti	Texnik ko‘rikdan o‘tkazish joyi
1	Bars	2	02-03.24	09-00	YHXB
2	Toshkent viloyati FVV	265	04.03.24	09-00	YOXB
3	To‘ytepa global expo	1	05.03.24	09-00	YHXB
4	To‘ytepa aloqa bo‘limi	3	05.03.24	09-00	YHXB
5	Nurafshon DSEN markazi	2	07.03.24	09-00	YHXB
6	Obodonlashtirish boshqarmasi	8	07.03.24	14-00	Obodonlashtirish
7	To‘ytepa Baner	1	09.03.24	14-00	YHXB
8	TYXPTFK	12	09.03.24	14-00	TYXPTFK
9	Tez tibbiy yordam bo‘limi	325	10.03.24	09-00	TTB
10	Avtoshogird	4	11.03.24	09-00	Vatanparvar
11	To‘ytepa metal qurilmalari	9	12.03.24	09-00	Metal qurilmalari
12	TETK	83	12.03.24	09-00	TETK
13	Uzbektelekom	82	14.03.24	09-00	Uztelekom
14	Mash’al gazeta	2	18.03.24	09-00	YHXB
15	To‘ytepa pochta	12	19.03.24	09-00	YHXB
16	To‘ytepa tekstil	13	25.03.24	09-00	To‘ytepa tekistil
17	Elektron	3	25.03.24	09-00	YHXB
18	Davr Trans Servis	15	26.03.24	09-00	YHXB
19	Vatanparvar	16	28.03.24	09-00	Vatanparvar
20	Davr Trans Plyus	5	28.03.24	09-00	YHXB
21	Shahargaz	231	02.04.24	14-00	Shahargaz
22	Safo maks oyil	1	02.04.24	14-00	YHXB
23	Adliya boshqarmasi	51	04.04.24	14-00	YHXB
24	Gornyak	1	04.04.24	14-00	YHXB
25	Nurafshon avtosentr	8	05.04.224	09-00	YHXB
26	Toshkent viloyati prokuraturasi	48	10.04.24	09-00	Prokuratura
27	Toshkent viloyati hokimligi	28	14.04.24	09-00	Hokimyat
28	Qishloq qurilish bank	8	15.04.24	09-00	YHXB
29	Toshkent viloyati toza hudud	28	16.04.24	09-00	Toza hudud
30	Osiyo qurilish invest	4	17.04.24	09-00	YHXB
31	O‘zb.Res.Davlat bojxona qo‘mitasi Toshkent viloyati boshqarmasi	112	20.04.24	09-00	Bojxona boshqarmasi
32	Toshkent viloyati hududiy chorvanasl markazi	20	22.04.24	09-00	YHXB
33	Nurafshon temurmalik invest MChJ	6	23.04.24	09-00	YHXB
34	Nurafshon-maxsus-texnika MChJ	9	24.04.24	09-00	YHXB
35	Toshkent viloyati qurilish nazorat inspeksiyasi	22	26.04.24	09-00	YHXB